

TUSHUNCHA VA SO'ZNING O'ZARO MANSUBLIK MUNOSABATI.

Ismanova Odinaxon Urunbayevna
Andijon davlat chet tillari instituti Nemis tili
nazariyasi amaliyoti kafedrasi doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tushuncha, soʻz predmet, belgi, voqea, xodisa, xarakter, prozess va shu kabilar xaqida kishilarning tasavvuridir. Soʻz shularning maʼlum tovush kompleksi vositasida tilda reallashuvi demakligi haqida soʻz boradi. Tushuncha soʻzga, soʻz esa oʻz navbatida toʻlaqonli ravishda tushunchaga toʻla ravishda mos kelavermaydi. Soʻz tushunchaning aynan oʻzi boʻlganda edi, tushuncha xamma joyda va xamma tilda bir xil tovush kompleksi bilangina ifodalangan boʻlishi haqida maʼlumotlar beriladi.

Kalit soʻzlar. Tushuncha, soʻz, belgi, xarakter, prozess, tovush, tasavvur, obyektiv borliq,...

Tushuncha predmet, belgi, voqea, xodisa, xarakter, prozess va shu kabilar xaqida kishilarning tasavvuridir. Soʻz shularning maʼlum tovush kompleksi vositasida tilda reallashuvi demakdir. Tushuncha soʻzga, soʻz esa oʻz navbatida toʻlaqonli ravishda tushunchaga toʻla ravishda mos kelavermaydi. Soʻz tushunchaning aynan oʻzi boʻlganda edi, tushuncha xamma joyda va xamma tilda bir xil tovush kompleksi bilangina ifodalangan boʻlar edi. Aksincha xar tilda tushunchaning ifodasi boshqa-boshqacha. Soʻngra soʻz tushunchaning xamma tomonini qamrab ololmaydi. Balki uning mohiyati va muhim tomonini, asliy xususiyatlarinigina aks ettiradi. Tushunchaning boshqa tomoni va boshqa xususiyatlari boshqa soʻzlar bilan ifodalanadi. Shu sababli tilda maʼnodosh soʻzlar vujudga keladi. Obʼektiv borliq kishi miyasida bir xilda aks etadi, yaxlit tushuncha xosil qiladi. Tushuncha logik kotegoriya boʻlib, qismlarga va ottenkalarga ajralmaydi. Sinonimlarning maʼnolari bir hil deyilganda, ularning bir maʼnoni anglatishi koʻzda tutiladi. Shunga koʻra maʼnolari bir xil aytilishi va yozilishi xar xil boʻlgan soʻzlar sinonimlar deyiladi deb taʼrif beruvchilar noxaq boʻlib qoladi. Chunki soʻzlar maʼnosi aynan bir boʻlsa, u holda sinonim boʻlolmaydi. Bunday soʻzlar dublet hisoblanadi. Shunday ekan sinonimlarning oʻzlariga xos maʼno ottenkalarini hisobga olmay, ularni bir maʼnoni ifodalovchi soʻzlar deb taʼriflash toʻgʻri emas. Aksincha bu taʼrifga ozgina oʻzgartirish kiritib, shunday desak, mening fikrimcha haqiqatga yaqin boʻladi. Aytilishi va yozilishi xar-hil, ammo maʼno jixatidan bir- biriga yaqin boʻlgan soʻzlar sinonimlar deb aytiladi. Umuman olganda sinonimlar soxasi boʻylab juda koʻplab oʻz fikrlarimizni bildirib oʻtishimiz mumkin. Soʻzning semantik strukturasi, leksik maʼnodan tashqari, stilistik boʻyoq ham hisobga olinadi. Masalan, ona, onajon, Mutter,

Mutterchen so'zlari leksik ma'no anglatilishi jihatidan bir biriga yaqin ma'nolarni anglatadi, ular deyarli bir xil.

Ammo bu so'zlar o'zaro stilistik bo'yog'i nuqtai nazaridan farqlanib turadi. Bularndan ona-Mutter so'zining semantik strukturasi stilistik bo'yoq jihatidan betaraf, predmetga shaxsning munosabati ifodalanmagan. Ammo onajon so'zida bunday munosabat aniq sezilib turadi, ya'ni unda predmet atalibgina qolmay, predmetga shaxsning xissiy emotsional bo'yoqdorlikdagi munosabat ham bildiradi. So'zning semantik strukturasi asosiy hodisa uning leksik ma'nosidir. Stilistik bo'yoq shu leksik ma'noga suyanadi. Stilistik bo'yoq bir so'zning leksik ma'nosiga nisbatan har xil bo'lishi mumkin. Shu sababli bir so'zning leksik ma'nolari xatto turli nutq ko'rinishiga xoslangan bo'lishi ham mumkin ekanligi bugungi davr tillarida anglanadigon ekanligi eng dolzarb ish sanaladi. Stilistik bo'yoq asosan ikki xil ifodalanadi: Morfema yordamida; yoki yana bir muhim va o'ta bugungi kundagi eng dolzarb hususiyatlardan biri bo'lgan so'z negizining o'zi bilan. Bularndan tashqari, kontekst yordamida ham ifodalaniishi mumkin. Birinchi va ikkinchi usul bilan ifodalanish holati leksik ma'noga bog'liq, uchinchi usul bilan ifodalanish esa asosan leksik qo'llashga bog'liq. Stilistik bo'yoqning morfema bilan tenglikda ifodalanishiga morfologik ifodalanish deyiladi. Bu holat bo'yicha ham ko'plab misollar keltirib o'tilganli bor. Masalan, -cha (uycha),...gina(qizgina),...jon (otajon),...chak, ...choq (kelinchak, qo'zichoq). Bu morfemalar asosan erkalash ma'nosini ifodalash uchun ishlatiladi. Shundagi stilistik bo'yoq so'z negizining o'zi bilan ifodalansa, leksik ifodalanish deyiladi

Bunda stilistik bo'yoq ko'pincha o'zlarning o'zaro semantik munosabatidan kelib chiqadi. Masalan, yuz, bet, aft, bagira, chexra so'zlari o'zaro ma'lum semantik munosabatda bo'lib, asosan bir ma'noni anglatadi. Ammo bu so'zlar stilistik bo'yog'iga ko'ra farqlanadi. Shunuqtai nazardan eng betaraf so'z "yuz" so'zidir. Ikkinchi o'rinda "bet" so'zi turadi bu so'zda stilistik bo'yoq aniq sezilib turadi. Aft, ungalaversa bashara –Fratze so'zlarida esa stilistik bo'yoq yanada kuchliroq ifodalangan bo'lib, o'zi anglatayotgan predmetga salbiy munosabat yanada yaqqol seziladi.

Stilistik bo'yoq har biri o'z doirasida o'zaro neytral bo'lgan so'zlarni o'zaro ma'no munosabatiga kirishish orqali ham mavjud xolatda kengayib tuziladi. Bunday ifodalanishga kontekstual ifodalanish deyiladi. Masalan, *bosh* so'zi kishi organizimiga nisbatan ishlatiladi, *kalla* so'zi esa odatda hayvon organizmiga nisbatan ishlatiladi. Bularning har biri o'z ishlatilish doirasida stilistik nuqtai nazaridan betarafdir. Masalan, boshini ko'tardi, kalla solib sho'rva qildi. Ammo "kalla" so'ziko'pincha hayvonlardan odamga ko'chirilishi natijasida bosh so'zi bilan o'zaro ma'lum semantik munosabat hosil qilib, stilistik bo'yoqqa ega bo'ladi. Odatda *bosh*

so'zi aql bilan bog'lansa, kalla so'zi shuning aksini anglatish uchun ishlatiladi. Kontekstual ifodalanishda stilistik bo'yoq nutq vaziyatida reallashadi.

Masalan, olim so'zi haqiqatda olim kishiga nisbatan aytilsa, stilistik bo'yoq betaraf bo'ladi. Taqlidchiga qarata mazax tariqasida aytilsa, stilistik bo'yoqqa ega bo'ladi. Masalan, Olimimiz nima der ekan.¹ So'zning semantik strukturasi bog'liq holda so'zning qo'llanishi ham ta'kidlanadi. So'zning qo'llanishi ma'lumdarajada leksik ma'noning taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Shunga ko'ra so'zning qo'llanishini "leksik qo'llash" deb atash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Ismanova O.U. XORIJIY TILLARNI OQITISHDA HAR BIR OQUVCHI BILAN INDIVIDUAL SHUGULLANISH VA KOPRIK TIL MOHIYATI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO ILMIY TATQIQOTLAR JURNALI 2022.**
https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=uB4jVe8AAAAJ&citation_for_view=uB4jVe8AAAAJ:9yKSN-GCB0IC
2. **Ismanova O.U. TURLI TIZIMLI TILLARDA TARJIMON MAHORATI. UNIVERSAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE, 2023**
https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=uB4jVe8AAAAJ&citation_for_view=uB4jVe8AAAAJ:d1gkVwhDpl0C
3. **O. ISMANOVA. NEMIS VA OZBEK TILLAR KESIMIDA TARJIMONNING TARJIMADA LEKSIK SINONIMLARDAN TANLAB FOYDALANISH USLUBLARI** Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2023 21ноя
https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=uB4jVe8AAAAJ&citation_for_view=uB4jVe8AAAAJ:2osOgNQ5qMEC
4. **Odinaxon Ismanova. NEMIS TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDA TARJIMON MAHORATI.** Центральноазиатский журнал образования и инноваций 2023 2 ноя (93-97)
https://scholar.google.ru/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=Ismanova+Odinaxon&oq=
5. N. Mamatova, M. Sobirjonova, A. Abdurahimov, Sh. Sharobiddinova **BEDEUTUNG UND BESONDERHEITEN LITERATUR // International Conference on Developments in Education Hosted from Bursa, Turkey March. 20th 2023.**
6. R. Mamatov, Sh. Abduxoshimova, I. Akbarova, G. Nomonova **DIE SPEZIFISCHE HISTORISCHE BEDEUTUNG DER DEUTSCHEN PHONETIK// International Conference on Developments in Education Hosted from Saint Petersburg, Russia March 23rd 2023**

¹ Taqi.uz <https://taqi.uz>

7. N. Mamatova Aspects of Achieving Efficiency in the Educational Process on the Basis of an Innovative Approach// Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. Journal impact factor: 8.115 ISSN (E): 2795-739X, Volume 15, p 235, December 2022.
8. R.R.Mamatov THE CONCEPT SPHERE OF HERTA MÜLLER'S METAPHORIC CREATION// 13th- International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education, Hosted from Berlin, Germany, p 89 April 27th 2023.
9. Jurayev Azizbek Anvarovich,
A BRIEF HISTORY OF GERMAN LITERATURE // INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION, VOLUME 2 ISSUE 16, ISSN 2171-381X, SJIF 2023. 5.305
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=7asS6TwAAAAJ&citation_for_view=7asS6TwAAAAJ:Zph67rFs4hoC
10. А.В Омаджон ЗООФРАЗЕМАЛАРНИ ЎРГАНИШ ТАМОЙИЛЛАРИ ВА ТАҲЛИЛ УСУЛЛАРИ// Ijodkor o'qituvch// 2022/12/16 2,659-664.